

## RASHK BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING SABAB VA SHAROITLARI

*Sultanbayev Umidjon Davran o'g'li*  
*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi*  
*3 o'quv kursi 311 guruh kursanti*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muallif rashk tufayli sodir etiladigan jinoyatlarni kriminologik adabiyotlarda ko'rsatilgan tahlili, rashk tufayli janjallar sodir etilishining psixologik mexanizmini, rashk bilan bog'liq jinoyatlarning sabab va sharoitlarini ko'rsatib o'tib, uning profilaktikasi yuzasidan o'z fikr mulohazasini bildirib o'tgan.

**Kalit so'zlar:** *rashk, tan jarohat yetkazish, rashk zamirida odam o'ldirish, "men" obrazi, jamoatchilik ishtiroki, rashk vasvasa g'oyalari.*

### АННОТАЦИЯ

В данной статье автор показывает анализ преступлений, совершенных на почве ревности в криминологической литературе, психологический анализ ссор на почве ревности, причины и условия совершения преступлений, связанных с ревностью, и ее профилактику.

**Ключевые слова:** *ревность, телесные повреждения, убийство на почве ревности, представление о себе, публичное участие, идеи ревности, искушение.*

### ANNOTATION

In this article, the author shows the analysis of crimes committed due to jealousy in criminological literature, the psychological analysis of quarrels due to jealousy, the reasons and conditions of crimes related to jealousy, and its prevention.

**Key words:** *jealousy, bodily harm, murder motivated by jealousy, self-image, public participation, ideas of jealousy temptation.*

Oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlardan biri - erning (xotinni) xotini (erni) o'ldirishi jinoyatining uch turi farqlanadi: 1) ta'magirlik niyatida erning (xotinning) xotinni (erni) o'ldirishi. Odam o'ldirishning mazkur turi erning (xotinning) xotinni (erni) o'ldirishi bilan bog'liq jinoyatlarning atigi 5% ni tashkil etadi. Tamagirlik niyatida odam o'ldirishga aliment to'lashdan halos bo'lish, turar joy maydonini egallash, meros olishni tezlashtirish kabi maqsadlarda sodir etilishi mumkin. Erning (xotinning) xotinni (erini) o'ldirishi «nikoh firibgarligi» bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Bunda firibgar qotil xotinning (erning) mol-mulkini egallash maqsadida

nikohga kiradi, so'ngra uni o'ldirib, merosga ega bo'ladi. 2) har xil yumushlardan xalos bo'lish niyatida erining (xotinning) xotinni (erini) o'ldirishi (taxminan 5%). Bunday yumushlar jumlasiga bemor yoki keksa xotinga (erga) surunkali qarash zarurati yoxud unga boshqacha tarzda bog'liqlikni kiritish mumkin. Bunday odam o'ldirishlar er (xotin) yangi nikoh tuzmoqchi bo'lgan hollarda (agar xotin (er) nikohni bekor qilishga rozi bo'lmasa) ham sodir etilishi mumkin. Bunday odam o'ldirishlar doim qasddan sodir etiladi, ular juda puxta rejalashtirilganligi bois ularning yashirinlik darajasi juda yuqori bo'ladi. 3) rashk zamirida erning (xotinning) xotinni (erini) o'ldirishi (50% dan ortiq). Bunday odam o'ldirishlar odatda xotin (er) eriga (xotiniga) xiyonat qilgani aniqlangan hollarda sodir etiladi. Ba'zan bunday odam o'ldirish shubha ta'sirida sodir etilishi ham mumkin.

Rashk zamirida odam o'ldirish ayollarga qaraganda erkaklar tomonidan ko'proq sodir etiladi. Xotinning eridan qasos olish maqsadida uni o'ldirish hollari ham diqqatga sazovor. Eridan surunkali kaltak yeb, xo'rlanib kelgan xotinlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga doim ham murojaat etavermaydi. Vaqti kelib ular o'z zolim eridan o'ch olish, undan xalos bo'lish yo'llarini izlay boshlaydi, ba'zan esa erini o'ldirishga ham qaror qiladi.<sup>1</sup>

Oilaviy turmush inson hayotining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Xuddi shu boisdan jamiyatning qonun qoidalarga nisbatan munosabat ham oiladagi shaxslararo turli tuman muammolarda, muloqotda, fikr almashinuvida, munozaralarda, o'z ifodasini topadi, binobarin yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash oilaning naqadar mustahkam bo'lishiga, ota-ona munosabatlarida oliyjanob xarakter hislarini, bolada yuksak ma'naviy hislarni shakllantirishga bog'liqdir. Yosh avlodni oilada komil inson qilib tarbiyalashdek yuksak va mas'uliyatli vazifa ota-onaga, oiladagi kattalarga yuklatilgandir. Yurtimizda oila hamisha davlat himoyasida va oliy qadriyat sifatida e'zozlanadi. Oila ijtimoiylashuvning asosiy va muhim o'chog'i bo'lgani uchun ham uning shu muhitda tarbiyalanayotgan yoshlar e'tiqodi va dunyoqarashidagi roli sezilarlidir. Respublikamizda «Mahalla va oila» ilmiy-tadqiqot instituti o'z faoliyatini boshlashi, jamiyatda yoshlar tarbiyasi borasida oilaning ro'li va mas'uliyatini oshirishga qaratilgan muhim tadbir bo'ldi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o'zi va o'z sifatleri to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi. O'z-o'zini anglash, o'zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni inson tabiati shundayki, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, no'maqul sifatlarni anglamaslikka, ularni «yashirishga» harakat qiladi,

<sup>1</sup> Kriminologiya darslik Q.R.Abdurasulova TDYI. "Adolat" T.2007 151 bet elektron manba: <https://e-library.namdu.uz/Kriminologiya.%20Abdurasulova%20Q.R.pdf>

hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi. (Avstriyalik olim Z.Freyd nazariyasiga ko'ra). Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini o'ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko'pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, «Men» - obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgalar va ularning munosabati katta ro'l o'ynaydi. Odam o'zgalarga qarab, go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning mohiyati - aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya «Men» - obrazi egasining ongiga ta'luqli jarayondir. Aybdorlik, aybga yarasha jazo kabi usullar inson xulq-atvorini boshqaruvchi psixologik omilga aylanadi, u ham kelajakda doimo aybdorlarni qidirishga o'rganib boradi. Z.Freyd nazariyasiga ko'ra, ana shunday jazoga hukm etilgan inson tobora agressiv bo'lib borib, o'zida alamni qaysidir bir ob'yektdan (o'zidan kichiklardan, begonalardan, hayvonlardan) olishga qasd qiladigan, qasoskor bo'lib o'sadi. Jismoniy jihatdan bolaga zug'um qilib, uni kaltaklash holatlari deyarli barcha ijtimoiy qatlam vakillariga xosdir. Muammoni hal qilish uchun birinchi navbatda uni ko'rish muhimdir. Shu sababli, oila inqirozli vaziyatda ekanligini o'z vaqtida payqash allaqachon uni hal qilish uchun katta qadamdir.<sup>2</sup>

Oilaviy janjallar shu jumladan rashk natijasida asosan: badanga tan jarohat yetkazish, haqorat qilish, qasddan odam o'ldirish kabi jinoyatlar sodir etiladi. Eng achinarlisi arzimagan sabablarga ko'ra boshlangan kichik mojaro badanga tan jarohat yetkazish va qasddan odam o'ldirishgacha harakatlar bilan yakunlanadi. Rashkni sog'lom to'g'ri hissiyot deb baholasakda, uni oshib ketishi haddan tashqari xavfsirash, shubhalanish turmush o'rtog'ini "tirnoq ichidan kir qidirish" ga olib kelib, doimiy janjallar bo'lishini keltirib chiqaradi. O'ylashimizcha rashkning haddan tashqari yuqori bo'lishining aksar sababi, ayolning hech qayerda ishlamasligi, ma'lumotning, dunyoqarashning pastligi sabab bo'ladi. Sababi hech qayerda ishlamay faqat turmush o'rtog'ini kutadigan ayol o'z o'zidan turmush o'rtog'ini qayerda kimlar bilan ekanligi, nima ishlar bilan shug'ullanishini bilishga qiziqishiga, bu esa o'z o'zidan rashk qilishni haddan tashqari oshishiga olib keladi.

Achinarlisi rashkning me'yordan oshishi er va xotinning bir-biriga nisbatan ishonchini kamayishiga sabab bo'ladi.

Shu sababli profilaktika inspektori xotin-qizlar bilan ishlash inspektorlari, mahalla raislari, keng jamoatchilik, ayniqsa yoshi katta keng dunyoqarshga ega bo'lgan nuroniylarni, tuman shahar imom hatiblarini jalb qilgan holda yosh oilalarni ayniqsa turmushga chiqqandan so'ng hech qayerda ishlamayotgan ayollar orasida bu borada

<sup>2</sup>. V.M.Karimova. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun – T., 2007. – 316 b.

ularga tushuntirishlar berish, haddan tashqari rashk qilishning salbiy oqibatlarini tushuntirib ular bilan muntazam davra suhbatlari o'tkazib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu orqali rashk tufayli sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyat va huquqbuzarliklarni oldini olishga erishish mumkin bo'ladi.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР**

1. Рашк мақола **Ҳасанхон Яхё Абдулмажид манбаа: islom.uz сайти**  
**<https://islom.uz/maqola/895>**
2. Kriminologiya darslik Q.R.Abdurasulova TDYI. "Adolat" T.2007 151 bet elektron manba: <https://e-library.namdu.uz//Kriminologiya.%20Abdurasulova%20Q.R.pdf>
3. V.M.Karimova. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun – T., 2007. – 316 b.
4. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. – O. To'raeva. – T., z – n.,- 1990y.
5. Гурова А. "Диагностика психического развития детей".
6. Nishanova.Z.T.vab.Rivojlanish pedagogika va psixologiya-T. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. -515 b.
7. Ҳайитов, О., & Умарова, Н. (2001). Ёшларда профессионал ўсишга интилишни ривожлантиришнинг назарий-амалий асослари (шажаралар негизи мисолида). Т.: "TURON-IQBOL", 187.
8. Umarova, N. (2020). The Theoretical And Practical Model Of Making A Person Socializing Economically. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), 62-68. Қаранг: Ўзбекистон Республикаси " Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида" ги қонуни
9. Ўзбекистон Республикаси "Ҳуқуқбузарликлар Профилактикаси тўғрисида" ги қонуни